

TONG Yulduzi

№28 (66413)
2003 yil
21 iyul
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi
Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqqan boshlagan

"O'TGAN ZAMON HANGOMALARI"



Aziz o'quvchilar! G'afur G'ulomning «Shum bola» asarini o'qimagan, badiiy filmini tomosha qilmaganlar orangizda bo'lmasa kerak. Yaqinda O'zbek Milliy Akademik teatrida Erkin Xushvaqtoy ssenariysi asosida rejissyor Valijon Umarov sahnalashtirgan «O'tgan zamon hangomali» sahna asari namoyish etildi. Ushbu sahna asari G'afur G'ulomning «Mening o'g'rigina bolam», «Hasan Kayfiy» va «Shum bola» hikoyalari asosida yozilgan. Taniqli aktyorlar bilan bir qatorda «Shum bola» rolini Abdurasul Ma'rufpov mahorat bilan ijro etdi. Abdurasul poytaxtimizdagi La'l Bahodir Shastri nomli 24-maktabning 5-sinf o'quvchisi. Ushbu sahna asari namoyishidan so'ng, Abdurasulga bir necha savollar bilan murojaat qildim:

-Abdurasul, «Shum bola» roliga sizni kim taklif qildi?

G'afur G'ulom tavalludining 100 yilligi munosabati bilan maktabimizda tadbir

o'tkazmoqchi bo'ldik. Ustozimiz G'afur G'ulom aylanadilar. Repetitsiya jarayonlari soat 10-00dan 14-00gacha davom etardi. Ba'zida undan ham cho'zilib asarlarini topishimizni buyurdilar. Oyijonim bilan birgalikda O'zbek Milliy akademik teatriga yo'l oldik. Teatrda bizni Abduraim aka Abdurahobov kutib oldilar. Maqsadimizni bilgach, «Sen o'zimizga ham kerakli inson chiqib qolding-ku», deya meni rejissyor Valijon aka Umarovga ko'rsatdilar. Valijon aka menga «Shum bola» roliga mos ekansan, deb qo'linga ssenariy tutqazdilar. Uyga xursand bo'lib qaytdim. Menda «Shum bola» rolini ijro etish niyati tug'ildi. Bir-ikki o'qiganimdan so'ng, menga berilgan so'zlarni yodlab oldim.

-Sahnada mashhur aktyorlar bilan rol ijro etish qiyin bo'lmadimi, hayajonlandingizmi?

-Aksincha, men bilan ishlash ularga qiyin bo'ldi, (kuladi). Sho'xligimdan bezor bo'ldilar. Ishga shu darajada berilib ketibmanki, hatto boshqa aktyorlarning rolini ham yodlab olibman. Ular sal adashib ketsalar ularning gaplarini ham o'zim aytib turdim. To'ti Yusupova, Rixsivoy Avazov, Erkin Komilov, Abduraim

yoki shum bolaning shumliklari

damlarida butkul boshqa odamga aylanadilar. Repetitsiya jarayonlari soat 10-00dan 14-00gacha davom etardi. Ba'zida undan ham cho'zilib

HISOBNI TENGLASHTIRAMIZ

Salom, o'zbekistonlik do'stlarim! Ushbu maktubni Belorussiyadan yo'llayman. Magilevsk viloyati, Bobruysk shahridagi 31 - maktabning 6-sinfida tahsil olaman. Sport bilan shug'ullanish - akam ikkimizning eng sevimli mashg'ulotimiz. Ko'plab sport musobaqalarida qatnashib, faxrli o'rlnlarni egallaganmiz, esdalik sovg'alarini qo'lga kiritganmiz. O'tgan yili akam qatnashadigan jamoa a'zolari o'zbekistonlik tengdoshlari bilan bo'lgan «Quvnoq startlar» musobaqasida g'alabani boy berib qo'yishdi. Ayni ta'til kunlarida do'stlarim bilan sport mashg'ulotlarini qizitib yuborganmiz. Maqsadimiz - o'zbekistonlik bolalar bilan bellashib, hisobni tenglashtirish...

Men yana do'stlarim juda ko'p bo'lishini xohlayman. Shu maqsadda O'zbekistonga xat yozib, Toshkentdagi 239 - maktab o'quvchisi Suhrob Mirzayev, Buxoro viloyati, G'ijduvon shahridagi Ulug'bek nomli maktab o'quvchisi Xurshid Xidoyatovlar bilan samimiy do'stlashib oldim. Bir-birimizga maktublar yozib, o'z yurtimiz, shahrimiz, maktabimiz, do'stlarimiz, xullas, hamma-hammasi haqida yozishamiz. Do'stlarim safining yanada kengayishini istayman. Men bilan do'stlashishni xohlasangiz, xat yozing.

Unga, Stas KERNAJITSKIY ga deb yozib qo'yishni unutmang.



Abdulahobov, Tohir Saidovlar menga yaqindan yordam berdilar. Ular hayotda samimiy, quvnoq, sahnada esa umuman o'zgacha ekanlar. Rol ijro etayotgan

ketgan vaqtlari ham bo'ldi. Lekin men sira charchamadim.

-Birinci sahnaga chiqqan kuningiz...

-10 may kuni ushbu asarning premyerasi bo'ldi. Teatr odamlarga to'lib ketdi. Men o'zimni yo'qotib qo'ymadim. Tomoshabinlarga qaramay, bir zumda «Shum bola» ga aylanib oldim hamma narsani unuttim. Spektakl

tugagandan so'ng, olqishlarni eshitib quvonchim ichimga sig'may ketdi. Chunki men ham ilk bora sahnada rol ijro etdim-da. Onajonim ham men bilan baravar, (balki mendan ko'p) quvondilar. Do'stlarim Sanjar, Doniyor,

Alakbarlar ham meni tabriklashdi.

-O'ynagan rolingiz o'zingizga yoqdimi?

-Rolimga judayam o'xshaganim uchun yoqdi desam ham bo'ladi. Katta bo'lsam albatta aktyor bo'laman. Shu rolni ijro etganimdan so'ng, menga havas bilan qaragan do'stlarimni ko'rib quvondim.

-«O'tgan zamon hangomali» hozirgi kunga to'g'ri keladimi?

-Hammasi ham emas. Lekin u zamon bilan hozirgi davr butkul o'zgacha deb ayto olmayman. Ba'zi bir o'xshash tomonlari ham bor.

-Oilangizda san'atkorlar bormi?

-Shifokorlar, o'qituvchilar boru ammo san'atkorlar yo'q. Men o'zim aktyorlikka juda qiziqaman. Yoshligimda qo'linga mikrofon ushlab olib, o'zimcha Tohir Sodiqovning qo'shiqlarini aytganman. Boshqalarning ovozlari o'xshatib berardim. Maktabimizdagi «Qah-qaha» to'garigiga ham qatnashaman. Bo'sh vaqtimda ingliz tilini mustaqil o'rganaman.

-Suhbatingiz uchun rahmat. Kelgusi ishlaringizda omadlar tilayman.

GULYUZ suhbatlashdi.

YALPIZLARNING BO'YLARIDAN ZAVQQA TO'LUR KONGILLARI!

SAMARQAND

Qadimiy yodgorliklar,
Ko'hna yoshdan nishona.
Abadiy yashnab turgin,
Serviqor gul koshonam.

Ne-ne amiru shohlar,
Bag'ringda davron surdi.
Davrlar shitobini,
Xalqim ko'zi-la ko'rdi.

Chingizxon lashkarlari,
Seni toptadi chunon.
Temurning shavkati-la,
Dovrug' taratding chindan.

O'g'lonlaring mard, jasur
Tikladi ul Turonni.
Qaddingni tiklagan el,
Unutdilar suronni.

Mana elda to'ylar kechar,
Sening qutlug' ayyoming.
Bu kun olamga qulfin ochar,
Diling quvonchga to'lsin.

Samarqandmas- afsona bu!
Aziz shahrim koshona bu!

*Lazixon Sultonova
Samarqand shahar,
Siyob tumanidagi
21- maktabning 8- sinf
o'quvchisi. U ko'pdan
buyon she'rlar mashq
qiladi. Uning she'rlarida
hayot go'zalliklari,
insonlar o'rtasidagi
mehr, tabiat ko'rkamligi
mujassam. Yaqinda yosh
shoiraning «Binafsha»
nomli she'rlar to'plami
nashrdan chiqdi.*

*Tengdoshingiz Lazixononga ijodiy barkamollik
tilaymiz! Quyida uning ijodidan namunalar o'qiydiz.*



KLUBIMIZGA MARHAMAT

Men «Yangi avlod» bolalar klubining a'zosiman. Sizlarga shu klub haqida oz bo'lsa-da, ma'lumot bermoqchiman. Klubimiz shu yili tashkil etildi. Unda 7 yoshdan 21 yoshgacha bo'lgan iste'dodli yoshlar tahsil olishadi deyayotganimga hayron bo'lmang. Chunki biz u yerda jurnalistlik sohasini o'rganamiz. Ya'ni, matbuot, radio va eng asosiysi telejurnalistlikning sirlaridan voqif bo'lamiz.

Darslarni yaxshi o'zlashtirishimiz uchun turli qiziqarli o'yinlar ham o'ynaymiz. Masalan, guruhlarga bo'linib, kimdir rejissyor, kimdir operator va yana kimdir jurnalist bo'lib, birgalikda ko'rsatuv tayyorlanadi. Klubimiz rahbari Nilufar opa Vahobova bizning kamchiliklarimizni to'ldiradilar. Qarabsizki, biz o'yin orqali bilim saviyamizni ham oshiramiz. Agar siz ham kelajakda jurnalist bo'lishni orzu qilayotgan bo'lsangiz, klubimizga tashrif buyuring.

Klubimiz manzili: «Kamolot» YOIH bosh binosida joylashgan.

Malika ABDUVOHIDOVA,
«Yangi avlod» klubi a'zosi,
Nafis san'at litseyi o'quvchisi.

OROMGOH 70 YOSHDA

Yozgi ta'tilning ikkinchi oyida ukam Mansur bilan Qibray oromgohida dam oldik. Bu yilgi oromgohda o'tkazgan vaqtim o'zgacha bo'ldi. Sababi, Qibray oromgohi tashkil etilganligiga bu yil 70 yil to'libdi. Ushbu tantana munosabati bilan ko'plab bayram tadbirlari uyushtirildi. Men tadbirlarda o'zimning she'rlarim bilan qatnashdim. Oromgohda Furqat, Sherzod, Aziz, Farhod, Bobur, Dilshod kabi do'stlar orttirdim.

O'rtoqlarim bilan ko'plab musobaqalarda qatnashdik. Futbol bo'yicha o'tkazilgan musobaqada 3-o'rinni, voleybol va quvnoq startdan esa faxrli 1-o'rinni egalladik. Tarbiyachi Shoyista opamiz bizga o'z onamizdek bo'lib qoldilar.

Mahmudjon AZIMOV,
Shayxontohur tumanidagi
169-maktab o'quvchisi.



SOG'LOM BO'LAY DESANGIZ...

Yozning jazirama chillasida muzdekkina suvda cho'milib olishga nima yetsin? Oh-oh, tanning rohati-a? Shahrimizdagi favvoralaru katta-kichik hovuzlarning bolajonlar bilan gavjumligi ham bejiz emas. Oyimning aytishlaricha, bunday joylarda cho'milish mumkin emas, turli xastaliklarga chalinib qolish mumkin ekan. Shayxontohur tumanidagi 40 - oilaviy shifoxona felia'ining bo'lim mudiri Mamlakat opa Qosimova ham oyijonimning fikrlarini tasdiqladilar:

-Bunday suvlarda turli infeksiyalar mavjud bo'ladi. Bolajonlar ichak infeksiyasi, sariq kasalligi, lyamblos kabi yuqumli kasalliklarga chalinib qolishlari mumkin. Ichak infeksiyasining alomatlari quyidagicha: bemor tanasida suvning miqdori kamayib ketadi, qayt qiladi, holsizlanadi, ichi ketadi, ishtahasi yo'qoladi. Ahvoli og'irlashib qolganda hatto savolingizga javob ham javob berolmay qoladi. Tanasi qurib, ozib ketadi.



Ichak infeksiyasi kasalligi o'z vaqtida davolanmasa, oqibati o'lim bilan tugashi ham mumkin. Bu bemor bilan muloqatda bo'lgan kishilar 7 kundan 21 kungacha shifokor nazoratida bo'ladilar.

Bunday ko'ngilsizliklar bo'lmasligi uchun bolajonlarga maxsus hovuzlarda bir kunda bir soat davomida cho'milishlarini tavsiya etardim.

Ana shunaqa gaplar, do'stlarim. Yozgi ta'til kunlarida bemor bo'lib, shiftga termulib yotmay desangiz, kattalarning, shifokorlarning pandu-nasihatlariga amal qiling.

Dilshod IMOMOV, Dilshod G'OFUROV, Toshkent shahri.

PAZANDA OLIMLAR

Haqiqiy olim har taraflama mukammal bo'lishi kerak. Darhaqiqat, dunyoda shunday olimlar bo'lganki, ular fanning faqat bir sohasi bilangina shug'ullanib qolmay, balki pazandachilikdan ham xabardor bo'lishgan ekan.

Jumladan, buyuk matematik olim Pifagor, geograf sayyoh Xristofor Kolumb, mashhur fransuz mutafakkiri Jan-Jak Russo, yozuvchi Aleksandr Dyuma... Eh-he, bu ro'yxatni hali ancha davom ettirish mumkin.


Xususan, Xristofor Kolumb Amerikaga uyushtirgan ekspeditsiyasi davomida Kuba qirg'oqlari yaqinidagi bir qishloqda bo'lgan va aynan o'sha yerda loviya pishirish usulini kashf qilgan ekan. Kolumb bu yerga kelib tushganda yegulik narsalari allaqachon tugagan va o'z hamrohlarini to'ydirish maqsadida kema'dagi allanarsalarga mahalliy aholidan tuxum, yog' va boshqa narsalarni almashtirib olgan. So'ngra u dog'langan yog'ga tuxum, tuz va qaynatilgan loviya solib qovuradi. Tayyor bo'lgan taomdan yerlik aholiga ham picha ulashiladi. O'shandan buyon qariyb 5 asr o'tdi hamki, o'sha taom «Kolumbning loviya xo'ragi» nomi bilan hanuzgacha tayyorlanib kelinadi.

Shuningdek, oddiy karamdan antiqa tamaddi tayyorlash usulini dastlab buyuk matematik olim Pifagor kashf qilgan. Bu taom o'z davrida «Pifagor tamaddisi» nomi bilan mashhur bo'lgan ekan.

Fransuz mutafakkiri Jan-Jak Russo ham ajoyib oshpaz bo'lgan ekan. U hozirgi barchamiz sevib iste'mol qiladigan «Salat»ning ijodkorlaridan biridir.

Yana shuni ham alohida ta'kidlab o'tish kerakki, bu kabi olimlar tomonidan kashf qilingan taomlar bugungi kunda butun jahon pazandachiligining eng lazzatli taomlari qatoridan o'rin olgan ekan.

Dilafro'z XUDOYBERDIYEVA,
Toshkent shahridagi Amir Temur nomli 112 - maktab o'quvchisi.




«Nimalayni yozishibdi, mengayam o'qi-ib beyila-a», - deydi jaji Azamat.

MAKTAB "RESPUBLIKA" SI

- «Madaniyat ishlari vazirligi»mizda, ta'kidlaydi Gulruxsor Turdiyeva, - shahardagi boshqa maktablar bilan shartnomalar tuzib, har xil

ko'ngilochar shoular tashkil qilamiz.

- «Tartib- intizom qo'mita»mizda qattiq intizom bor,- hayajonlanib so'zlaydi Umidjon.- Sababsiz darslarga kech qolgan, sinfda to'polon qilgan, o'rtoqlariga nisbatan qo'pollik qilgan, formasiz yuradigan o'quvchilar bilan ish olib boramiz. Ularni turli mehnat ishlari bilan «jazolaymiz».



- «Matbuot, axborot qo'mita»miz esa maktabimizda Prezident qarorlarining bajarilishini, vazirlar ish faoliyatini devoriy gazeta hamda mahalliy matbuot orqali muntazam yoritib boradi. Bundan tashqari, o'quvchilarimizga Respublikamiz va dunyo yangiliklarini ham yetkazamiz,- ta'kidlaydi Sevara.



Farg'ona shahridagi 10- maktabning boshqa maktablardan ajralib turadigan bir jihati bor. Bu maktabning o'z «prezidenti» va «vazirlari» bor. «Maktab prezidenti» Gulnora Ibragimova, «tartib- intizom vaziri» Umid Andapo'latov, «sport qo'mitasi raisi» Faxriddin Mirzayev, «madaniyat ishlari vaziri» Gulruxsor Turdiyeva, «qizlar qo'mitasi raisi» Kaniza Jabborova, «mehnat, tashkiliy ishlar vaziri» Baxtigul Teshaboyeva, «matbuot, axborot qo'mitasi raisi» Sevara Usmonovadir. Ularning olib borayotgan ish faoliyatlari bilan yaqindan tanishish maqsadida bu tengdoshlaringizni suhbatga chorladim.




- Men esa maktab «prezidenti» sifatida maktabimizdagi barcha «vazirlik»lar ishini nazorat qilib boraman,-deydi biz bilan suhbatda Gulnora Ibragimova. -Har 15 kunda O'zbekiston Respublikasi «Kelajak avlod» nomi bilan yuritilayotgan «Bolalar Parlamenti» deputati Umid Otaxonovga hisobot topshirib boraman. O'ylaymanki, kelajakda xuddi bizning maktabdagi singari «respublikalar» ko'payadi va biz ular bilan mustahkam aloqalar o'rnatamiz.


- Maktabimizdagi «qizlar qo'mitasi»da qizlarimizni odob-ahloqiga, tozaligiga, kiyinish madaniyatiga e'tibor berib, ularga hayo-ibodobini o'rgatib boramiz, maslahatlar beramiz, - deydi Kanizaxon.



- Maktabimizda sport bo'yicha basketbol, voleybol, tennis, futbol, boks, kurash, karate to'garaklari mavjud. Bu yerda o'quvchilarni sog'lom va baquvvat bo'lishini ta'minlab, maktablararo turli sport musobaqalarini uyushtirib boramiz,- deydi Faxriddinjon.



- «O'quv- mehnat vazirligi»miz esa bu yilgi «Obod mahalla» yilida nafaqat maktabimizni, balki o'zimiz yashayotgan mahallalarni ham obod bo'lishi uchun faol harakatda,- hayajonlanib so'zlaydi Baxtigul.



Rasuljon ABDULLAYEV tayyorladi.

ABDUHOLIQ G'JDUVONIY

G'ijduvon shahridagi 2- davolash maktab-internatida sil kasali bilan og'rigan bolalar davolanadilar. Ayni ta'til kunlarida internatda sport mashg'ulotlari, to'garakishlari avjida.

Yodnoma

Yaqinda maktab-internatda Abduholiq G'ijduvoniyning 900 yilligiga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi. Maktabning 9- sinf o'quvchilaridan Baxshanda Rafiyeva, Feruz To'ychiyev, Matluba Nuriddinova, Sarvinoz Nurullayeva, Shahob Sharipovlar faol ishtirok etdilar. Avvalo o'quvchilar Abduholiq G'ijduvoniyning hayoti va faoliyatini chuqur o'rganish maqsadida ko'plab adabiyotlardan foydalandilar.

O'qib o'rganganlarini, ustozlaridan eshitganlarini jamlab, «Abduholiq G'ijduvoniy 900 yoshda» deb nomlangan burchak tashkil qildilar.

Tadbirda o'qituvchilar, ota- onalar hamda olimlar taklif qilindi.

Ular qiziqarli va bilimni oshiradigan tadbir uchun maktab sardori Fazliddin Sattorov, maktab o'qituvchilari Abdurahim Rafiyev, Obida Karimovalarga rahmat aytdi hamda ona tili va adabiyot o'qituvchilarining xizmati katta bo'ldi.



«Mehnatsevar qiz»

Toshkent shahar, Mirobod tumanidagi 214-maktabning 7- «V» sinf o'quvchisi Qizlarxon YO'LDOSHEVA chizgan rasmini shunday nomlabdi.

Ustoz haqida so'z

Halima opa Sattorova o'qituvchilar sulolasidan. Shu sababdanmi, ular bu kasbga mehr qo'yib, ulg'aydilar.

Qir q

CHINOR OSTIDAGI NAVNIHOL

yillik pedagogik

faoliyatlari davomida

qanchadan-qancha shogirdlar tayyorladilar.

Men ham ularga havas qilardim.

Ulardek ustoz bo'lishni istagandim.

Niyating - hamrohing,

deganlaridek, orzuimga erishdim.

Ayni kunlarda men ham

o'qituvchiman. O'z shogirdlarim

bor. Ular bilan muomala qilar

ekanman, albatta ustozim Halima

opa ko'z oldimda gavdalanadi.

Gohida o'quvchilarimning

savollari ko'payib ketadi. Javob berishga esa vaqt kam.

Shunda yana Halima opaning so'zlari yodinga tushadi.

Ular bizning har bir savolimizga erinmasdan, to'liq

va aniq javob berar edilar. Biz uchun doimo vaqtlari

bor edi.

Tinib- tinchimas, talabchan va qattiqqo'l ustozlar

bor ekan, biz shogirdlar chinor ostidagi navnihol

kabi ularga qarab talpinaveramiz.

Ozoda MUHAMMEDOVA.



Assalomu alaykum, «Tong yulduzi» gazetasi ijodkorlari!

Men ham umid bilan sizga maktub yo'llamoqdaman. Ma'lumki, sevimli adibimiz O'zbekiston Xalq Qahramoni, O'zbekiston Xalq yozuvchisi Said Ahmad bu yil muborak 83 yoshni qarshiladilar. Yaqinda oyijonim bilan Toshkent viloyati, Qibray tumanida joylashgan Yozuvchilar bog'iga borib, Said Ahmad bilan uchrashdik. Ular bilan uchrashish menga ham nasib etganidan Allohga behad shukronalar aytaman.

O'zim haqimda ikki og'iz so'z. Men Samarqand viloyati, Teleradiokompaniyasidagi mavjlari»

Zilolaxon qizim!

Onangizning baxtiga sog'-omon bo'ling. Ertangi kuningiz g'oyatda porloq bo'lsin. Kelajakda O'zbekistonimizga eng kerakli fuqaro bo'ling.

Biz hammamiz sizga o'xshagan iste'dodli yoshlarning yurtga keltiradigan foydasi to'g'risida o'ylaymiz.

Umringiz uzoq bo'lsin. Birgina onangizning erkasi bo'lib emas, butun elimizning erkasi bo'lib yuring.

Said Ahmad
16.7.2003

«Zarafshon dasturida», «Kichkintoy», keyinchalik «Tengdosh» rukni ostida mualliflik sahifalarini olib boraman. «Ehtirom» deb nomlangan maqolamni hamda Said Ahmadning menga bildirgan dill so'zlarini e'tiboringizga havola qilaman.

«Yozuvchilik go'zal ehtiroslardan kelib chiqadi», degan Darhaqiqat, yozuvchi hayot bulog'ini dilidagi alangadan

Ko'p qirrali ijodi, mehrini qozongan Xalq yozuvchisi, «Buyuk ko'plab orden va medallar sohibi tavallud ayyomlari muborak bo'lsin, Shukronalar bo'lsinki, Said Ahmad muyassar bo'ldilar. Zero, Vatanimiz ozodligi yo'lida kurashib, ana shu kunga yetishishni istaganlar qancha edi. Biroq, sevimli yozuvchimizga bunday munavvar kunlarni qarshi olish, uning mashaqqatli mehnati, kechirgan azob- uqubatlari evaziga keldi.

Ha, adibning umr yo'llari juda murakkab. Tengdoshlarim uning «Yo'qotganlarim va topganlarim» nomli kitobini o'qishsa, bunga amin bo'ladilar. Matonat va bardosh sohibining hayoti biz yoshlar uchun ibratdir.

Muvaffaqiyatli ijodiy mehnat — farog'atdir. Said Ahmadning sermahsul ijodi tahsinga sazovor. Uning asarlari munosib baholandi. Eng muhimi — u xalqning qalbiga yo'l topdi. Afsuslar bo'lsinki, Said Ahmadning turmush o'rtog'i, shoir Saida Zunnunova shunday baxtli kunlarni ko'rolmadi. Ayni kunlarda ijodini davom ettirayotgan adib farzandlari, nabiralari davrasida keksalik gashtini surayaptilar.

Men Said Ahmaddek mashhur yozuvchi bilan zamondosh ekanligimdan faxrlanaman. Ularga uzoq- umr, sog'lik- salomatlik va barakali ijod tilayman.

Zilola TILLABOYEVA, Samarqand viloyati, Samarqand shahridagi 64- o'rta maktabning 10- sinf o'quvchisi.

EHTIROM

E'ZOZ

ekan donishmandlardan biri. xas- hashaklardan tozalaydi, inson rohatbaxsh chashma yasaydi. betakror asarlari bilan kitobxonlar O'zbekiston Xalq Qahramoni, O'zbekiston xizmatlari uchun», «Do'stlik» kabi sevimli adibimiz Said Ahmadning deyman.

O'zbekiston Mustaqilligini ko'rishdek baxtga O'zbekiston Mustaqilligini ko'rishdek baxtga Vatanimiz ozodligi yo'lida kurashib, ana shu kunga yetishishni istaganlar qancha edi. Biroq, sevimli yozuvchimizga bunday munavvar kunlarni qarshi olish, uning



Sevimli adibimiz Said Ahmad va men.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

Nurjon nurli quyunchadan bir tutam quyosh nuriga aylandi-yu «yarq» etib qaldirg'ochning qanotiga uchib o'tdi. Jimitvoyning qanotlaridan bug' ko'tarildi. Qop-qora ko'zlari charaqlab ochildi-yu qushcha sho'x vijirlaganicha uchib ketdi.

-Ketik, ketdik o'ynagani,- chuvillashdi bulutchalar shovqin- suron bilan

BUYUK bog'ning pastki tomoniga uchib ketisharkan. - Yur, Nurjon!

Nurjon shu zahotiyiq yana nurli quyunchaga aylandi-yu daraxtlar bargida, ariqchada jildirayotgan suv yuzida, gullarning gulbarglarida sakrab o'ynay boshladi. U o'yinga shunchalik berilib ketdiki, hatto buvasidan beso'roq kelgani ham esidan chiqib ketdi.

Olovli qasrga qaytib ketayotgan Oftob ota bo'lsa hayron: bu tinib- tinchimas nevarasi Nurjon to'satdan qayoqqa g'oyib bo'ldiykin?

Bolasi tushmagur adashib qoldimikin?.. Moviy dengizdagi aksiga tikilib o'tirishni yaxshi ko'rardi, tag'in suvga yiqilib tushgan bo'lsa-ya?

«Endi nima qilaman?- o'yladi Oftob ota. -

Kampirimga nima deyman?». Oftob ota xayol bilan bo'lib, nur otlariga qamchi bo'yuborganini sezmay qoldi. Aqlli otlar har kuni yuradigan yo'llaridan shamoldek uchib ketishdi. Ularning tuyuqlari ostidan sachrayotgan uchqunlar osmonni alvon rangga bo'yadi.

Oftob ota qasriga yetay degandagina yerga birrov nazar tashladi va bog'dagi daraxtlar orasida sakrab yurgan nevarasiga ko'zi tushdi. U uzun nurli qo'llarini cho'zib Nurjonni ushlab oldi va shu zahotiyiq olovli qasrning darvozasi kirib,

ko'zdan yo'qoldi.

Hozirgina oldilarida turgan Nurjonning to'satdan yo'qolganini ko'rgan bulutlar hayron bo'lib qolishdi. Ammo, ularning ichida eng kattasi bo'lgani uchunmi, Oqbola nima voqea yuz berganini darrov tushundi.

SUT DARYOSSI (Qissa)

-Xurshid, bugun juda zo'r o'ynadik, - dedi u. Ammo bugunga shu yetadi, chunki quyosh botdi, hademay buving seni-qidirib qoladi. Biz ham uyga, oyimning oldiga ketamiz.

Osmon qoramtir tusga kirib, sanoqsiz yulduzlar charaqlay boshladi. Huv uzoqda, Xurshidga ko'rinmayotgan tog'lar ortidan, tag'in Oftob ota yo'g'ida odamlar yo'lidan adashib yurmasin, deb shoshib- pishib Oymomo kampir osmonga ko'tarilayotganini yulduzlar ko'rib turishar va buvisining yangi ertagini tezroq eshitish umidida sabrsizlik bilan chaqnashardi. Shu bilan birga qorong'uda Xurshid o'z bog'ida adashib qolmasin tag'in, deya xavotirlanib pastga qarashardi.

Xurshid-ku qorong'uda ham o'z bog'ida adashib qolmasdiku-ya, lekin hozir osmonga anqayib turganining sababi bor edi. Qiziq-da, nima uchun yulduzlar ba'zan tez va sirli ko'z qisib qo'yisharkin-a?

OQBOLA MAKTABGA BORADI

Birinchi sentabr kuni dadasi ham, buvisi ham, oyisi ham erta tongdanoq turib olishdi. Bu vaqtda hali Oftob ota ham mazza qilib uxlab yotar, xo'rozlar bo'lsa endigina qichqira boshlagan edilar.

Buvisi Xurshidning quloqlarini yuvdi. Oyisi bir hafta ilgari dazmollab qo'yan maktab kiyimlarini kiydirdi. Dadasi bo'lsa o'ziga ish topolmay, oshxonada sut qaynata boshladi. Shu orada ko'zi

kechagi gazetaga tushib qoldi-yu uni o'qib o'tirib sutni toshirib yubordi. Keyin, oyisi bilib qolmasin uchun tezgina gaz plitasini tozalab qo'ymoqchi bo'lgandi, qo'lini kuydirib ham oldi.

-Ana, har doim shunaqa-da... — endi gap boshlagandi oyisi, buvisi uning gapini bo'ldi.

—Ortiqcha gapning hojati yo'q, qani turib,

ishga jo'nanglar-chi, — dedi buvisi e'tiroz bildirib bo'lmaydigan ohangda. — O'g'lim maktabga boryapti, deb ishdan kech qolmanglar, tag'in. Nevaraginamni o'zim maktabga olib boraman.

Buvisi adasini ham, oyisini ham ishga jo'natdida, gulzordan bir dasta gul uzib chiqdi va Xurshidni yetaklab yo'lga tushdi. Maktabga boradigan yo'l gul ko'targan bolalarga to'lib ketibdi. Ravshan, Shavkat, hatto Mahsuma ham gul ko'tarib maktabga ketishyapti.

Xurshid gul ko'targan bolalarni bir safga tizish uchun tinmay yelib-yugurayotgan ozg'ingina, ko'zlari qop-qora, chiroyli muallima opani qiziqsinib kuzatarkan, negadir uni yoqtirib qoldi. Chunki, Xurshid buvisi aytib beradigan ertaklardagi go'zal malikalarni xuddi shu muallima opasiga o'xshagan deb tasavvur qilardi-da.

Bolalarni muallima opa sinfga olib kirdi.

—Meni muallima opa, deb chaqirasizlar, — dedi u o'zini tanishtirib. — Agar bunday aytishga qiynalsanglar, Nodira opa, deya qolinglar.

Muallima opa Xurshidni oyna oldidagi partaga o'tqazib qo'ydi. Xurshid bilan bir partada... Mahsuma o'tirmish.

—Bor ket, men sen bilan birga o'tirmayman, — dedi Xurshid.


(Davomi bor.)



R. Yo'ldoshev,
Toshkent viloyati, Bo'stonliq
tumanidagi
11-maktab
direktori:

-Eng avvalo har bir o'qituvchining o'zini qanday tutishiga, xulq-

atvoriga, so'z boyligiga, o'z kasbini qanchalik yaxshi



muallimalarning ko'ngli bo'sh bo'ladi.

Ruslan XOLMEDOV,
11-sinf o'quvchisi:

-O'qituvchining obro'si obro'si eng avvalo odamiyligi, samimiyligi bilimida deb

-O'qituvchining obro'si nimada, deb berilgan savol bugungi kunda tabiiydir. Chunki yosh, mustaqil respublikamizning ravnaq topishida o'qituvchiga juda katta mas'uliyat yuklanadi. Menimcha, o'qituvchining obro'si eng avvalo odamiyligi, samimiyligi bilimida deb bilaman. Bilimi yo'q o'qituvchi tez kunda o'quvchilar oldida obro'sini yo'qotadi.

Yaxshisi bunday o'qituvchi kasbini o'zgartirgani

O'QITUVCHINING OBRO'SI NIMAGA BOG'LIQ?

ko'rishiga, bilim saviyasiga, kerakli vaqtda mehribon, kerakli joyda qattiqqo'l bo'lishiga bog'liq.

talabchanlikda deb bilaman. O'quvchilardan qanchalik ma'qul talab qilsa, o'quvchilar shunchalik hurmat qiladi va darslarga e'tibor beradi.

M.SALIMOVA,
I - toifali ximiya-biologiya
o'qituvchisi:

-Zamon o'qituvchisining obro's o'qituvchining bilimiga, haqqo'yiligi va uning odamiyligiga bog'liq de o'ylayman. Mustaqil mamlakatimizning rivojlanishi, uning kelajagi shu o'qituvchilarning fidoiy mehnatlariga bog'liq.



Ortiqoy

ABDULLAYEVA,

I - toifali fizika o'qituvchisi:

-O'zlarining bor bilimlarini, mehruhabbatini atrofdagilarga ulashishdan zavq va huzur topadigan insonlar, komil farzand, oqil shogirdlar tarbiyalayotgan kasbiga sadoqatli ta'lim fidoiylarigina yuksak ehtiromga loyiq o'qituvchi hisoblanadi.



Nortozi ZIYABOYEV,
direktor o'rinbosari:

-Hozirgi zamon o'qituvchilar zamon bilan hamnafas hamd o'quvchilarning eng yaqin sirdoshidek bo'lishi kerak. O'qituvchining samimiyligini, halol va vijdonliligini o'quvchilar sezib turishi kerak.



Sabina IRISMETOVA,
10-sinf o'quvchisi:

-Hozirgi zamon o'qituvchisining obro'sini bitta so'z yoki bir narsa bilan izohlab bo'lmaydi.



Lola NAZAROVA,
10-sinf o'quvchisi:

-Bizning maktabimizda shunday o'qituvchilar borki, ularni obro'si baland. Nortozi aka Ziyaboyevni hamma hurmat qiladi.

Dilfuza ZIYABOYEVA,
10-sinf o'quvchisi:

-O'qituvchilar ko'proq erkak ustozlar bo'lgani yaxshi. Negaki, ayol



Muparra AZIMOVA,
oliy toifali boshlang'ich sinf
o'qituvchisi:

-O'qituvchining obro'si uning izlanuvchanligi, zamon talabiga javob berishi, muomalasi, o'quvchilarni ruhiyatini yaxshi bilishida. Chunki o'qituvchini tabiatini bilmagan o'qituvchi tez kunda obro'sini yo'qotadi. Ular bilan doimo samimiy munosabatda bo'lishi kerak.



Farida IBRAGIMOVA,
Chinoz tumanidagi

2-umumta'lim maktabi
direktori:

-Yoshlarimiz o'rtasida muomala madaniyatini tarbiyalashda biz tarbiyachi-pedagoglarning mas'uliyati ham katta o'rin tutadi. Ma'naviyat darslarida hadislardan namunalar, Abdulla Avloniyning «Turkiy Guliston yoxud ahloq», Kaykovusning «Qobusnoma» kabi asarlaridan o'qib, yoshlarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda foydalanmoqdamiz.

Ilvira OTAMURODOVA suhballashdi.




Mahfuza MUHIDDINOVA,
Toshkent tumanidagi
9-maktabning ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi:

Nonushta payti Behzod yog' surtilgan nonni tishlab:
-Yemayman,- deb dasturxonga qo'ydi.
Oyimlar darrov hushyor tortdilar.
-Nega yemaysan, o'g'lim? - dedilar muloyimlik bilan.
O'zlarini buvimning ko'zlariga qaradilar.
-Qotgan ekan,-dedi Behzod beparvolik bilan.
-Qotgan emas,- dedilar oyim yana asta.- Biroz suvi qochibdi-da.
-Yemayman,- qaysarlik qildi Behzod.
Oyim esa buvimga qaraydilar. Kimki nonni qotibdi, suvi qochibdi desa, buvimning ko'zlarida yosh qalqiydi.
Shundan oyim ham eziladilar.
Buning sababi bor-da.

xxx

Buvimning ukalari- Qo'chqor tog'amning bolaligi urush yillariga to'g'ri kelgan.
O'shanda qish erta tushibdi. Tancha chetida uxlab yotgan tog'am sovuqdan junjikib uyg'onibdilar.
-Non,- debdilar, - non yeyman.



Buvim uyg'onibdilar. Tancha ustidagi ko'rpa chetini ko'tarib otashkurak bilan kulni titibdilar, bir-ikki mayda cho'g'ni yuzaga chiqaribdilar.
-Non yeyman,- debdilar tog'am yana.
-Sabr qilgin, ukajon,- tinchitishga harakat qilibdilar buvim.
-Hademay urush tugab, otam kelsa, dasturxonimiz nonga to'ladi.
-Qornim ochdi, non yeyman,- debdilar tog'am yana, - non yeyman.

-Yuzingni yuvgin, hozir choy ichamiz,- debdilar buvim.
Qo'chqor tog'amning harhashasidan katta tog'alarim ham uyg'onib ketishibdi.
-Non yeyman,- debdilar

Qo'chqor tog'am endi yig'lab. Katta tog'alarim unga mo'ltirab qarashibdi.

Buvim o'rinlaridan turib, qoziqdagi xaltadan bir hovuch jiyda olib beribdilar:

-Mana buni yeb turgin, nonday shirin,- debdilar.
Qo'chqor tog'am bir dona jiydani og'zilariga solib:
-Yo'q, non yeyman, - debdilar yana yig'lab. Ularga qo'shib buvim ham yig'labdilar. Faqat katta tog'alarim nima qilishlarini bilmay mo'ltirab turishibdi...

xxx

Hozir Qo'chqor tog'am katta bo'lib ketganlar. Bolalari ham ko'p. Katta uy qurishgan. Har shanba kuni buvimni ko'rgani kelishadi. Qo'chqor tog'am qog'oz xalta ko'tarib oladilar. Birida shirin-shirin shokoladlar, birida qip-qizil shirmoy kulchalar bo'ladi. Buvimni quchoqlab, yuzlaridan o'padilar.

-Opajon, sizga non opkeldim,- deydilar.
Buvimning esa suyunganlaridan xira ko'zlarida yosh g'iltillaydi.

Abdulhax NOSIROV.

«GULLAYOTGAN VATANIM»

tanloviga

Vatan... Uning ibtidosi beshikdan, ona allasidan boshlanadi. U mittigina beshik bag'rida, jajjigina yurak qo'ynida, Alloh nomi bilan bog'lanuvchi alla ohangida, beshikka enkayotgan ona nigohlarida, talpinib emayotgan bolaning oppoq sut zamirida tug'iladi, voyaga yetadi. U endigina o'ziga tanish so'zlarni chug'urlab aytayotgan bola tilida, atak-chechak qadam tashlayotgan mitti inson

oyoqlarida uni boshiga ko'tarib turgan tuproq nafasida, ulkan uy ostonasida, ilk mehrni berayotgan Oila deb atalmish Vatan ichidagi Vatan og'ushida voyaga yetadi. Demakki, Vatan-Tarix, Tuproq, Til, Ona, G'urur, Osmon, Oila, Beshik, yurakdir.

Alloh o'z husnini namoyish qilish uchun yer yuzida go'zallik uni, aqlini anglatmoq uchun donishmand odamlarni yaratar ekan. Tangri o'z muqaddasligini anglatmoq uchun Vatanni yaratmadimikin? Biz barcha iltijolarimizni Yaratganga yo'llaymiz, undan panoh kutamiz, unga sig'inamiz va buyuk sajdagoh deb bilamiz. Vatan Allohning ko'rinishi ekan, demak, Vatan ham sajdagoh kabi muqaddasdir.

Erta tongda tog'lar ortidan ko'tarilayotgan quyoshga hech ko'zingiz tushganmi? Uning zarrin nurlaridan ko'z'laringiz qamashganmi? Men O'zbekistonni ana shu quyoshga o'xshataman. Mana, O'zbekistonning Mustaqil bo'lganiga hademay 12 yil bo'ladi. Davlatimizning mustaqilligini 165 ta mamlakat tan olgan.

Sanoat va qishloq xo'jaligini rivojlantirish, yoshlarga alohida e'tibor berish, kelajak mevalari bo'lmish bolajonlarimizni bilim olishlari uchun keng yo'l ochib berildi.

Poytaxtimiz Toshkentni kundan-kunga tanib bo'lmas

darajada bo'lishi ham e'tiborga loyiqdir. Go'zal manzaralar, xiyobonlar, keng va shinam ko'chalar kishi e'tiborini o'ziga tortadi. Shunday go'zalliklarni ko'rib, mustaqillikka shukronalar aytasan kishi.

O'zbekiston, senga termulib, nigohlaringni yasharayotganligini, bir orombaxsh shabadada shirin jilmayib, qo'lingni balandroq ko'tarayotganini ko'raman. Bu mustaqillik shabadasi, seni yuksakka ko'tarayotgan kuch erkinlik quvvatidir.

*Vatan, sening nigohingga termulib,
Ko'z'laringda marjon-marjon yosh ko'ndim.
Ulug'bekning ingrog'idan ezilib,
Samarqandning yuragida dog' ko'ndim.*

*Quchog'ingda Andijon oh chekadi,
Bobur o'g'ling sog'inchiga chidolmay.
Qo'qon hanuz ohu faryod uradi,
Nodiraning jonsiz tanin qucholmay.*

*Tushlarimda o'qlar mudom ingraydi,
Ular ham yurak, imyon bir emish.
Fitratning Cho'lpon bag'ring teshgan-chun,
Gunohidan bo'zlab-bo'zlab yig'larmish...*

Oynisa ESHMURODOVA,
Samarqand viloyati,
Oqtosh shahri,
A.Navoiy nomli 64-o'rta
maktabning
10-sinf o'quvchisi.

Skavord tuzuvchisi: Muazzam
Rasulova, Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani.

*Aziz o'quvchilar! Mana,
tanlovimizda ikki o'quvchining
insholari va skavordni tavsiya etildi.
Marhamat, sizlar ham o'z ijodiy
ishlaringiz bilan tanlovimizda
qatnashing. Tanlov g'oliblariga
«Beta-choy» savdo belgisining
maxsus sovg'alari bor.*

		Olmos	Ulug'bek rasadxonasi joylashgan tepalik	Alla ijrochisi	Cho'l, sabro Dalaning cheti				
Avstraliya tuyaqushi	Telegraf Ixtirochisi Tok bargli do'lma						Bir o'rkachli tuyu turi		Katta yo'l
			Toshkentdagi mehmonxona				Finlandiyadagi ko'l		Matonat, qat'iyat
Ruh Televizor "vatani"	Quvvat o'lchov birligi			Kuy, obang Qovun navi					
			Qadimda xon saroyi	Erkaktardagi eng yuqori ovoz					
Imoratbop daraxt	Qozog'istondagi daryo	E.Vohidov dostoni		Hasharot Yuksak iste'dod					
Zaryadlangan zarra			Tasma, qayish					Hindistondagi shtat	
					Ayollar bosh kiyimi				
Hayvon turi	Gavda, vujud	Parranda erkagi			Latviya poytaxti	Yer sathidan baland joy		Islom farzlaridan biri	
Bo'yusunish Gap bo'lagi				Mashrab g'azali					
		Lampochka gazi	Nom, ot		Afsonaviy cho'pon		Suvash asbobi		
Mehnat quroli Qurshov	Voris boyligi			Pazanda					
		Gretsiyaning yunoncha nomi		Portugaliyalik dengizchi (1469-1524)					
Birinchi o'zbek ovozi kinofilmi	Oqsoq (qadimda)			Chirmashib o'sadigan o'simlik		AQSH prezidenti		Hindistondagi sabro	
		Meditsina							
Kimyoviy unsur She'r satri	Arman puli			Dudoq	Farg'onadagi tuman		Geometrik shakl		

ZERIKISHGA VAQT YO'Q

So'lim yoz kunlarining dilbar tonglari qushlarning shodon chug'ur-chug'urlari ostida yorishar ekan, bolajonlar maktab sog'inchini his qilib uyg'onadilar. Maktab partasining yurakni orziqtiruvchi sho'xliklar bilan qorishib ketgan xayoli entiktiradi.

Xullas, yozning qaynoq quchog'i hech bir gashtga alishmaydigan darajada go'zal o'tmoqda...

Sevimli gazetangiz «Tong yulduzi» sizning qiziqishlaringizni hisobga olgan holda jonajon yurtimizning turli burchaklarida istiqomat qilayotgan o'rtoqlaringizning ta'til kunlarini qanday o'tkazayotganliklari haqida hikoyalar berib borishni rejalashtirgan. Birinchi suhbatdoshimiz Buxoro viloyati, Jondor tumanidagi 20-o'rta maktabning 5-«B» sinf o'quvchisi Dilnavoz Mehmonova:

-O'tgan o'quv yilida maktabimizda o'tkazilgan «Huquqingizni bilasizmi?» degan mavzuda o'tkazilgan

tanlovda g'olib deb topilganimdan so'ng ushbu ta'tilda Konstitutsiyamizni bundan ham chuqurroq o'rganishga ahd qilgandim. Ozmi-ko'pmi shunga erishdim. Bundan tashqari, Stin Tompsonning «Yovvoyi yo'rg'a» asarini,

Ta'til qanday o'tyapti, bolakay?

o'qib chiqdim. Yana uyda oyijonimga uy yumushlarida qarashaman. Akam No'monjondan ingliz tilini o'rganyapman. Xullas, zerikishga vaqt yo'q.

Dilnavozning suhbatini Buxoro shahrida yashovchi Lazizjon Baxtiyor o'g'li davom ettirdi:

-Men ta'tilni Buxoro viloyatining Vobkent tumanida joylashgan, «Yosh irrigator» deb nomlangan oromgohda dam olish va o'zim yaxshi ko'rgan mashg'ulotlarimdan biri - milliy kurash bilan shug'ullanish bilan o'tkazyapman. Dadam, oyim, opalarim, hamma-hammamiz birgalashib sayohatga chiqishni va yana dadam rahbarlik qilayotgan Vobkent tumanidagi

Qishloq-xo'jalik sanoat kollejining dam olish bog'ini obodonlashtirish ishlarini rejalashtirganmiz.

Qashqadaryolik Asrorjon Uzoqovning fikrlari esa o'zgacha:

-Men yozgi ta'tilda jamoa xo'jaligimizning tajriba uchastkasidan yer olib, o'zim sevgan soham - bog'dorchilik bilan shug'ullanmoqchiman. Rahmatlik Uzoq bobom: «Sen bog' yaratsang, umring ham shu bog' kabi yashnaydi», der edilar.

Shuning uchun ham har doim bog' yaratishni ko'nglimga maqsad qilib qo'yganman. Men yaratgan bog'imni «Mehr bog'i» deb atamoqchiman. Chunki mehr-muhabbat qanchalar gullab yashnasa, Vatanimiz shunchalar obod, ko'nglimiz yorug', xalqimiz xotirjam bo'ladi.

Biz ham Abrorjonning samimiy, pokiza orzulariga rivoj tilab, vatanimiz obod bo'lishiga astoydil umid bog'lab, bolajonlarimiz bilan xayrlashdik.

SANOBAR suhbatlashdi.



O'sha **FALOKATDAN OMON QOLGAN BUZOQCHA** o'ylayotgani kungi voqea uchunmi,

(kichik hikoya)

bir umr bolalarning yodidan chiqmasa kerak...

Yozgi ta'til pallasi edi. Bolalar kunduzlari jajji qishloqlarining chetidagi anhorga borib cho'milishar, so'ng daladagi qumga ag'anab mazza qilishardi. Ular qo'shni qishloqdagi o'rtoqlari Rahim bilan Davronni ham cho'milishga taklif etdilar. Rahim «Men bugun mollarni o'tlatishim kerak-da, dadam u yoqqa borishimga ruxsat bermasalar kerak», dedi. Shunda bolalardan biri «Mollaringni o'sha joydagi o'tloqqa qo'yib yuborasan, o'zlari o't chimdib yurishadi, sen esa biz bilan cho'milasan», dedi. Bu gap barchaga ma'qul tushdi.

Anhorning suvi tip-tiniq, muzday. Quyosh esa tepadan ayamay shu'la sochardi. Jazirama kunda sovuq suvda cho'milish bolalarga xush yoqar, ular bir-biriga suv sachratib nuqul qiyqirishardi. Ular obdon cho'milishga berilib ketishdi. Avval birma-bir suvga kalla tashlashdi, so'ng kim uzoqqa

suzib boradi, deya bahslashishdi va suzish mashqlarini boshlashdi. Bir payt Davron: «Anavini qaranglar, u nima ekan?» deya qichqirib yubordi. Qarashsa, suv betida nimadir oqib kelayotir.

-Voy, buzoqcha-ku!
-Bechora-yey, ishqilib tirikmikin?!
-Yuringlar, uni qutqaraylik.

Bolalar suv uzra yugurishib, buzoqchani ko'tarib qirg'oqqa olib chiqishdi. U endigina tug'ilgan, sovuqdan dir-dir titrardi.

-Tavba, bu qayoqdan oqib kelib qoldi?

Hayron bo'lib turgan bolalar beixtiyor Rahim yetaklab kelgan sigirni ko'rib qolishdi. U suv to'la anhorning cheti bo'ylab zir yugurar, nuqul «Mu-u-u!» deb baqirardi.

-Voy, bu buzoqcha biznikiga o'xshaydi. Dadam «bugun-erta sigirimizning ko'zi yoriydi», degandilar. Endi nima qildim?!

Rahimning oxirgi so'zlari titrab chiqdi. U buzoqchani o'lib qoladi, deb

qo'rquvdan rangi oqarib ketgandi.

Bolalar buzoqchani quyosh nurida rosa «quritishdi». Bir payt kichik jonivor dumchalarini o'ynatib, irg'ishlay boshladi. Sigir esa endi xotirjam bo'lganday, sal narida bemalol o't chaynadi. Shunda Rahim buzoqchani ona sigir yoniga olib bordi. Buzoqcha esa xuddi biron o'rgatganday onasini ema boshladi. Bolalar buni ko'rib quvonib ketishdi.

-Ur-re, buzoqchamiz endi hecham o'lmaydi!

-Rahmat sizlarga,- dedi Rahim ham sevinib.


Ular anhor yoqasida o'tirishib ona sigir bilan buzoqchani mehr bilan tamosha qilishar, sigir esa ularga parvo ham qilmasdan, «go'dagi»ni tillari bilan yalardi.

Ular kechga yaqin uylariga xursand holda qaytishdi. Bolalardan biri ona sigirni yetaklab olgan, oldinda esa qizg'ish buzoqcha o'ynoqlab borardi.


Cho'lponoy MELIYO'ZIYEVA.

TOPISHMOQLAR

Misoli gulxan o'zi,
Olovli doim ko'zi.
Ko'k dengizda yuz ochur,
Yeru ko'kka nur sochur.



Qalin, cho'tir po'sti bor,
Hur o'lkada do'sti bor.
Dum-dumaloq bukilmaz,
Sariq yog'i to'kilmas.



O'zi semiz, joni yo'q,
Ichi qizil, qoni yo'q.
Beqasam to'n bor unda,
Yumaloq u kun-tunda.
Shirindan-shirin yesang,
Mag'zini qandday deysan.



Uychamning eshigi yo'q,
Har yonda teshigi yo'q.
Ikki do'st ertayu kech
Ichidan chiqmaydi hech.


**Bobomurod CHORI o'g'li,
Surxondaryo viloyati,
Angor tumani.**

1. Osmondagi eng katta yoritgich:

- A. Oy
- B. Quyosh
- V. Yulduz.

2. Suvda suzadigan eng katta baliq:

- A. Nahang
- Baliq
- B. Kit
- V. Delfin.



3. Oylarning qaysi biri qisqa?

- A. Dekabr
- B. Fevral
- V. Yanvar.

4. Qaysi daraxt gullamasdan meva qiladi?

- A. Shaftoli
- B. Behi
- V. Anjir.

5. Qaysi sport o'yini faqat ringda o'tkaziladi?

- A. Qilichbozlik
- B. Basketbol
- V. Boks.

6. Hayotini deyarli yer ostida kechiradigan jonivor

- A. Sichqon
- B. Yumronqoziq
- V. Chuvalchang.

MAQOLLARNI TO'LDIRING

- Bilimdan ortiq
- Do'stsiz boshim
- Ilimi yo'qning
- Oz so'zla

Ruxsora JALILOVA,

Poytaxtimizdagi

173- maktab o'quvchisi.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim o'tgan zamonda bir podshoh bo'lgan ekan. Uning go'zal qizi bo'lib, husni ming olam aro doston ekan. Sovchilar eshigini sindiray deb turgan vaqtda podshoh shunday shart qo'yibdi:

-Kimda kim baxt gulini topib keltirsa, o'shanga qizimni beraman, - debdi.

Barcha xaridorlar baxt g u l i

BAXT GULI

n i m a

ekanligiga boshini qotirayotganida, bir dehqon yigit podshoh huzuriga kelibdi. U:

-Baxt guli - bu qo'limiz. Biz qo'llarimiz bilan yurtni gullarga burkashimiz mumkin. Yoki aksincha. Qo'llar bilan vayron qilish mumkin. Shunday ekan, ezgulik yo'lida xizmat qiladigan qo'llarimiz faqat baxt uchun payvasta bo'lsin,- debdi. Podshoh uning gaplaridan lol qolibdi va qizini qirg' kecha-yu qirg' kunduz to'y qilib, o'sha dehqon yigitga uzatibdi. Yigit bilan malika yurtni gullarga burkab, baxtli hayot kechirishibdi.



**Ma'mura SHONAZAROVA,
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi
Alaqo'lyiq qishlog'idan, o'quvchi.**

SO'Z O'YINI

Gazetaning avvalgi sonida «So'z o'yini» rukni ostida berilgan «Gavharshodbegim» so'ziga Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 85-maktabning 7- «A» sinf o'quvchisi Munisa Avazova 138 ta so'z topib, g'olib bo'ldi.

«Saroymulxonim» so'ziga esa Sirdaryo viloyati, Guliston tumanidagi 21-o'rta maktabning 6-sinf o'quvchisi Anorqulova Muhayyo 137 ta so'z topib, g'olib bo'ldi. Siz ham shunday ko'p so'zlar toping va g'oliblikka erishing, aziz o'quvchilar!

Aziz bolajonlar! Bugun sizlarning e'tiboringizga navbatdagi so'zlarni havola etamiz. Eng ko'p so'z tuza olgan va bizga birinchilardan bo'lib maktub yo'llagan bilimdonlarni albatta sahifamiz orqali e'lon qilib boramiz. Bilimingizni sinashga shoshiling.

MOVAROUNNAHR

Tuzuvchi: NILUFAR.

BOLANING TILI SHIRIN

Shaharda yashaydigan bola qishloqqa kelibdi. Xolasi sigir sog'ayotgan ekan. Bola xolasidan so'rabdi:

-Xolajon, sigiringiz sutining qaymog'i olinganmi?

xxx

Dilshod ko'chadan yugurib uyga kiribdi:

-Oyijon, qornim gapirayapti, ishonmasangiz eshitib ko'ring,- debdi.

Oyisi qulog'ini o'g'lining qorniga bosib ko'ribdi.

-Qorning gapirmayapti-ku. Qani, o'zing ayt-chi,

qorning nima deb gapirdi o'zi?

-Qornim «Muzqaymoq yeyman!», deyapti...

xxx

Tushdan keyin biroz uxlab turgan Xurshiddan oyisi so'radi:

-Ha, kalla pishdimi?

Xurshid yugurib borib, gazo'choq ustida turgan qozonning qopqog'ini ochib qaradi.

-Voy, oyijon, qozonda kalla yo'q-ku!..

xxx

To'rt yashar Nodir shaharga - ammasinikiga mehmonga keldi. Ammasiga ergashib bozorga chiqqan Nodir ajablanib so'radi:

-Amma, bu yerda olchalar daraxtda emas, tog'orada pishadimi?

**Gulnoz TOJIBOYEVA,
yosh muxbir.**





Faridaxon she'riyat gulshanida ilk chiroy ochayotgan nafis binafshalardan. Uning she'rlarida mavjlanib oqayotgan zilol suvlarning sharqirashi, vatanimiz sarhadlarining betakrorligi ona muhabbati ulug'lanadi. Qalbidagi ezgu tuyg'ularini, yoshlik orzu-o'ylarini satrlarga tushirayotgan bu tengdoshingizning ijodiga baraka tilaymiz.

O'QUVCHILIK YILLARIM

Yulduzim deb seni ko'kdan izladim,
Sen haqingda kulib shirin so'zladim.
Balki bugun senga qaytmoq istadim,
Yurakdagi tuyg'ularim qistadim.
Qulog'imda qo'ng'iroq sadolari,
Shodlikka jo'r qalbimning nidolari.
Esladim ustozni alifbosini,
Maktab va do'stlikning chin ma'nosini.
Men seni sog'indim, baxtli kunlarni
Sog'indim xazonli, gulli va gohi
Nurga to'lgan oppoq qorli yo'llarni,
Sog'indim beg'ubor maktab yillarni.

Tengdoshlaring ijodi

QALBIMDA UMIDIM BOR

Baxtiyorman ketar bo'lsam ham,
Bu dunyoga kelganim uchun.
Qushlar kabi ucholmasam ham,
Osmonga qo'l cho'zganim uchun.
Qalbimda bor umid uchquni,
So'ndirmasman uni hech qachon.
To tirikman men uchun aziz,
Hayotimda ketgan har bir on.

*Faridaxon ABDULLAYEVA,
Toshkent shahar,
Akmal Ikromov tumanidagi
287- tayanch maktabining
8- sinf o'quvchisi.*

Bu voqea bundan bir necha yillar ilgari sodir bo'lgan ekan. Bir kuni dadam ishdan kelayotib, yo'lda bir keksa otaxonni uchratib qolibdilar. Kech tushib qolgani uchun hech qaysi mashina ularga to'xtamayotganmish. Dadam mashinani chetga olibdilar. Otaxon mashinaga chiqibdilar. «Ilohim tuproq olsang, oltin bo'lsin.

IJOBAT BO'LGAN DUO

Yo'llaring bexatar

bo'lsin», deb duo qilibdilar otaxon. Otaxon juda gapdon chiqib qolibdi. Yigitlik vaqtlari-yu boshidan kechirgan har xil voqealar haqida gapirib beribdilar. Dadam ham ularni mashinalariga chiqarganlariga hecham pushaymon bo'lmadilar. Yo'lda yo'ldosh bo'lgan bu otaxonning nasihatlarini tinglab kelaveribdilar. Dadam manzilga yetay deb qolganlarida otaxon tushaman, debdilar. Shunda dadam: «Iye, deyarli bir ko'chada turarkanmizu tanimas ekanman-da», debdilar. Ha, endi sen kuni bo'yi ishdasan, bolam. Seni ko'-o'p kuzataman, ilohim, bolalaringni rohatini ko'rgin, deb g'oyib bo'libdilar. Dadam bunga hayron bo'lib, yo'lda davom etibdilar. Mana, dadam nafaqa yoshidalar. Men esa uzoq yo'llarga mashina haydayman. Dadam doimo menga: «Yo'lingda muhtoj odamga uchrasang, yordamingni ayama bolam. Duo oltindan ham qimmat», deyidilar. Men ham ularning gapidan chiqmaslikka, yo'lda uchragan yo'lovchini olishga harakat qilaman.

*Ilyos G'AFUROV,
Toshkent viloyati,
Nomdanak qishlog'i.*

BO'RI BOLASI

narsaga qarasalar, u

bo'ri bolasi emish. Olishga qo'rqibdilar. Chunki bo'rilar bolasini juda qizg'anishar ekan. To'satdan hujum qilib qolishlari ham mumkin ekan. Bo'ri bolasi yarador, uning ustiga juda nozik ekan. Baribir uni olibdilar. Uyga olib kelib, yaralarini bog'labdilar. Bo'ri bolasi katta bo'la boshlabdi. Oradan oylar o'tibdi. Endi u ko'chadagi itlar bilan urishib, hamma yog'i qonga belanib keladigan bo'libdi. Dadam u paytlarda yosh bo'la ekanlar. Bo'ri bolasiga juda o'rganib qolibdilar. Buvam bo'ri bolasini toqqa eltib tashlash kerakligini aytibdilar. «Bo'ri baribir bo'ri-da. Bir kuni bizga ham hamla qiladi», debdilar. Dadam bunga qattiq qarshilik qilibdilar. Buvam baribir uni toqqa olib borib tashlabdilar. Dadam bunga ko'nika olmay, buvamdand arazlab yuribdilar. Oradan ancha oylar o'tibdi. Bir kuni ertalab buvam hovliga tushsalar, o'zlari boqib katta qilgan bo'ri turgan emish... Faqat uning yunglari to'kilgan, tishlangan, ozib-to'zib ketgan ekan. Shu-shu bo'ri buvamlarnikida qolib, shu yerda yashagan ekan.



*Ilhomjon MOHIDDIN o'g'li,
Parkent tumani,
Xisorak qishlog'i.*

Kunlardan bir kun

Bir kuni uyimizga mehmonga kelgan amakim menga shu voqeani aytib berdilar:

— Men o'sha paytlarda jamoa xo'jaligida qorovul bo'lib ishlardim. Katta yerga ekilgan sabzavotlarga sherigim Ravshan bilan qorovulchilik qilardik. Kech kuz edi. Polizdan deyarli hamma narsa yig'ishtirib olingan, faqat kartoshka va sabzi qolgan edi. Ravshan ikkimiz vagonda kechki ovqatni yeb o'tirgan edik. Birdaniga do'pir-do'pir ovoz keldi. Otning kishnagani ham eshilib turardi.

— Rais, dedi Ravshanning rangi o'chib. Ikkalamiz vagondan otilib chiqdik. Lekin ko'chada na ot, na odam bor edi. Biz atrofni aylanib, ichkariga kirdik. Avvaliga rais deb o'yladik, yana kimdir o'g'rilikka keldi, dedik. Oradan hech qancha vaqt o'tmasdan, yana otlarning kishnagani, do'pir-do'piri eshitildi. Biz yana vagondan chiqdik. Ne ko'z bilan ko'raylikki, dalaning o'rtasida uchta otliq ekinni payhon qilib yurardi...

Biz ularga jon-jahdimiz bilan baqirib, yugura boshladik. Ammo ular bizni eshitishmasdi, o'zlaricha allanimalar deb gaplashishar, tortishishardi. Biz Ravshan bilan ularni oldiga yaqinlashib, bu yerni payhon qilish mumkinmasligini aytdik.



ADASHGAN OTLIQLAR

Ammo ular bizga qayrilib ham qarashmasdi. Ravshan otlarning biriga bir urmoqchi bo'lib qo'lini olib borgan edi, qo'li otga tegmay, havoda muallaq qoldi. Men ham bunga hayron bo'lib, Ravshanga qaradim. U esa turgan joyida yiqilay deb turardi. —Arvohtar, dedi u pichirlab. Jim tur, qimirlama! Biz tik turgancha nafas olishga ham qo'rqardik. Hammasidan ham ekin payhon bo'layotganidan jonimiz achib turardi.

Shu payt ular allanimalar deb g'o'ldirab, to'g'riga ot qo'yib ketishdi. Biz Ravshan bilan ular qutulganimizga shukr qilib, vagonga qarab yugurdik. Ertalabgacha uxlamay chiqdik. Ertalab rais keldi. Payhon bo'lgan ekin uchun rosa gap eshitadigan bo'ldik, deb boshimizni egib turaverdik. Rais esa, bugun ekinlarni yig'ishtiramiz, deb ketdi. Biz avvaliga ularni ko'rmagan, deb o'yladik. Ikkalamiz bir-birimizga yo'l bermay, kechagi otliqlar «toptagan» joyga bordik. Bordigu hayratdan yoqa ushladik. U yerda na ot tuyog'ining izi va na odamning izi bor edi... Buni ko'rib battar vahimaga tushdik. Mana, o'sha voqega ham bir necha yil bo'ldi. Ammo hecham esimdand chiqmaydi. Xuddi kecha bo'lgandek esimda turaveradi. O'shanda Xudo bir asragan bizni, deb amakim hikoyalarni yakunladilar.

*Erkin FAYZIYEV,
Toshkent viloyati, «Qoraqalpoq» jamoa xo'jaligi.*

Ona yurt - oltin beshing
TONG
Yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
MATBUOT VA
AXBOROT
AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR IJTIMOY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama
MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi» nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi» nashriyot uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi.

Hajmi A-3, 2 bosma taboq.

«Sharq» nashriyot - matbaa aksiyadorlik kompaniyasida ofset usulida bosildi.

Adadi - 33729

Korxonalar manzili:
«Buyuk Turon» ko'chasi, 41.

Buyurtma № 1 - 502
Gazetani
Ma'suda
IRISNAZAROVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Feruza
ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-63-08
144-63-75